

XORIJIY SOTSIOLINGVISTIKA FANIDAN SOTSIOLINGVISTIKA VA XORIJIY
SOTSIOLINGVISTIKA

Eshmirzayeva Nilufar Yoqub qizi

*O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
termiz davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida
Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

DIALEKTIZMGA MUNOSABAT

Annotatsiya: *Maqolada tilga shevalarga bo'lgan e'tibor. Tilning jamiyatdagi o'rni, vazifasi, mavqeyi jihatlarida haqida to'xtalib o'tilgan. Tilning lug'aviy tarkibi, leksikasi. lug'at boyligi haqida to'xtalib o'tilgan. Shevalarimizning adabiy tilga tasiri mavqeyi to'g'risida aytib o'tigan.*

Kalit so'zlar: *Izohli lug'atlar, Shevalar, adabiy tilning mavqeyi lug'at boyligi, leksikasi haqida.*

Tilning rivojlanish jarayonida uning lug'at tarkibi (leksikasi) boshqa sohalariga qaraganda tez, sezilarli, jiddiy o'zgarishlarga uchraydi. Buning sabablari ma'lum, albatta. Bu o'zgarishlar leksikaning faqat miqdor jihatdan emas, balki sifat jihatdan ham rivojlanishini aks ettiradi. Leksikadagi taraqqiyot, o'zgarishlar yangi lug'aviy birliklarning paydo bo'lishi va ma'lum lug'aviy birliklarning yo'q bo'lishi (iste'moldan chiqishi), so'zlarning yangi ma'nolar kasb etishi va ayrim ma'nolarining yo'qolishi kabi hodisalardan iborat bo'ladi. Bu jarayonda lug'aviy birliklarning adabiy me'yor (norma)ga bo'lgan munosabatida, qo'llanishi va boshqa xususiyatlarida turlicha o'zgarishlar yuz beradi. Ana shunday o'zgarishlar ma'lum darajaga kelganida, ularni nazariy va amaliy jihatdan aks ettiruvchi tadqiqotlarga ehtiyoj tug'iladi. Amaliy ishlarning asosiylaridan biri esa izohli, tarixiy va etimologik lug'atlar tuzish hisoblanadi. Ikki jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" yuzaga kelgandan buyon o'tgan yigirma yildan ko'proq vaqt mobaynida o'zbek tili leksikasida yuz bergan o'zgarishlar e'tiborga olinsa, allaqachon ana shunday lug'atning yangisini yaratish vaqti kelganligi va bu ish hozirgi kunning talabi ekanligi o'z-o'zidan ayon bo'ladi. Adabiy tilni bir me'yorga olish kelish hamma uchun tushunarli bo'lgan lug'atni yaratish amalga oshirilgan bo'lsa xuddi shu lug'atlarning zahirasi bo'lgan shevalarning lug'atini yaratish bugungi kun tartibiga kirib bormoqda. Shevalarning lug'atini yaratish va ularni amalyotda qo'llay olish tilimizga bo'lgan hurmatni yanada oshiradi. Bir so'zning boshqa hududda boshqacha nomlanishi bu tilimizning yanada jarangdorligi va jozibasini oshiradi. Sheva lug'atini yaratish bizdan keyingi avlodga yetkazish masalasi bugungi kun tartibidadir.

Shevalarimiz adabiy tilimizni boyituvchi ichki manbalardan biri. Ularning leksik birliklari bo'lgan dialektizmlarni o'rganish, yig'ish, ularni umumlashtirib, lug'at shakliga keltirish va ilmiy iste'molga tadbiiq etish masalasi ancha bahslidir. Rus turkolog olimlari

o'zbek xalq shevalarini XX asrning 20-yillaridan o'rganishni boshlashgan. Natijada, ulardan shevalarni tadqiq etishni o'rgangan, sheva so'zlarini farqlab, talqinu tahlil etishdan o'rnak olgan o'zbek olimlari ham XX asrning 50-yillaridan boshlab sheva va lahjalarimizni jiddiy ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy asoslar o'rganishga kirishishgan. Ammo "O'zbek shevashunosligi" masalalari ilgari surilgan bir paytda, ya'ni XX asrning 20-yillaridan to 80 yillarigacha bo'lgan davrdagi ushbu sohada amalga oshirilgan ilmiy ishlar qattiy bir tartibda olib borilmagan, to'g'rirog'i, tadqiqotchilarning tashabbuslari asosidagi tadqiqot faoliyati vositasida, stixiyali tarzda olib borilgan. Bu haqidagi fikr-mulohazalar hozir birinchi marta aytilayotgani yo'q, balki bundan o'ttiz uch yil oldin ham o'zbek dialektologlaridan biri Do'stmurod Abdurahmonov tomonidan aytilib, maxsus ilmiy ishda ta'kidlangan¹. Hozirgacha mavjud lahjalarimiz hamda bir qancha shevalarimiz fonetik hamda morfologik jihatlardan o'rganildi, ammo shevalarimiz dialektal leksika nuqtai nazaridan to'liq o'rganilgani yo'q. Shuningdek, o'rganilgan shevalarimizning dialektal materiallarida ham keyingi yillarda taraqqiyot tufayli ma'lum bir fonetik, leksik va grammatik o'zgarishlar ro'y bergan bo'lishi tabiiy hol, ya'ni mavjud shevalarni yana bir boshdan o'rganish masalasi kun tartibida turib qoldi, desak xato qilmagan bo'lamiz.

Ma'lum bir vaqt o'tishi bilan boshqa tillarda bo'lgani kabi tilimizning fonetikasi va leksikasida kam bo'lsa-da, o'zgarishlar yuzaga keladi. Agarda tildagi fonetik hamda leksik o'zgarishlar eng avvalo uning shevalarida o'z ifodasini topishi mumkinligini o'ylasak, lahja hamda shevalarimizning mustaqillik sharoitida XX asrning oxiri va XXI asrning boshidagi holatini yana bir boshdan o'rganish zarurligi sezilib turibdi. Bu esa mamlakatimizning mustaqillik davridagi shevalarimizni o'rganib, yangi-yangi tadqiqotlar olib boruvchi dialektologlarni ham nazariy, ham amaliy jihatlardan zarur ko'nikmalarni singdirish lozimligini anglatadi. Mazkur o'quv qo'llanma esa yuqorida eslatilgan yangi dialektolog olimlarni shakllantirishda amaliy manbalardan biri bo'lib xizmat qilgan va xizmat qilmoqda. Shuningdek, haligacha shevalarimiz materiallari asosida 1971 yilda nashr etilgan "O'zbek xalq shevalari lug'ati"dan boshqa biron bir lug'at nashr etilmagan. U ham bor-yo'g'i 9,5(to'qqiz yarim ming)ta dialektal so'zdangina iborat lug'at. Shu yo'sinda davom etadigan bo'lsak o'zbek tilining eng boyish manbasi bo'lgan shevalarimizdan ayrilib qolishimiz mumkin. Bugungi kunda chetdan kirib kelayotgan so'zlarni shu holda qabul qilib olyapmiz ichki imkoniyatlarimizdan kam foydalangan holda. Hozirgi texnika asrida ekanmiz zamon bilan hamnafas bo'lgan holda o'z tilimizning rivojiga e'tibor bermasak asta sekinlik bilan o'z ahamiyatini yuqotishi mumkin.

Har bir davrning me'yor va tamoyillari, ya'ni o'z talablari ham bo'lgani singari shevalarimizni o'rganish jarayonida ham o'ziga xos me'yor va tamoyillar mavjudligini hisobga olish lozim bo'ladi. Shunday talablardan biri shevalarimizni tadqiq etuvchi tajribali va bilimli filolog mutaxassislarni tayyorlab yetishtirish bo'lsa, ikkinchisi esa sheva materiallarini yozishga oid bo'lgan transkripsiyani singdirish hisoblanadi. Quyida shevalarimizning dialektal jihatdan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan leksik, fonetik, morfologik, sintaktik xususiyatlar saqlangan sheva materiallarini yig'ish so'roqligini bayon

qilamiz. Biroq unda ba'zi bir kamchiliklar uchrasa, buning uchun oldindan uzr so'raymiz. Shu o'rinda bir asosiy fikrni ta'kidlashni istardik. Sheva materiallarini "Dialektologik amaliyot so'roqligi" asosida yig'ish ham ilmiy ijodning, ya'ni ilmiy ishning boshlanishi desak, xato bo'lmaydi. Zarur materiallarni yig'ish, jamlash, to'plash asosida ilmiy tahlilga kirishish ilmiy konsepsiya hamda ilmiy bashoratning ishonarli boshlanishidir. Zero, "Ilmiy bashorat bu – o'tmish va bugunning noma'lum hodisalari, shuningdek, mashhur nazariyalar (Masalan, shevalarimizning lingvogeografik tadqiqi – ta'kid bizniki), qonunlar, gipotezalar asosidagi xulosa sifatida ilgari suriladigan kelajak hodisalariga nisbatan ular haqidagi taxminlardir"¹ . Ushbu amaliyotga borgan talabalardan kelajakda zahmatkash olim va serqirra ijodkorlar etishib chiqadi. Shu sababli ham "... olimlar va ijodkor xodimlarimizga e'tiborni kuchaytirishimiz kerak. Chunki ma'naviy boyliklarini aynan shular yaratadi"² . Talabalarimiz ertaga "Ma'lumki, inson o'z ijodiy izlanishlari asosida dunyoni (ilmda esa boshqa tadqiqotlar bilan birga dialektal tadqiqotlarning ham mazmun va mohiyatini tushunib, amalga oshiradi – ta'kid bizniki) o'zgartiradi va o'zini yaratuvchi, ijodkor, kashfiyotchi sifatida namoyon etadi"

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.ReshetovV.V.Shoabdurahmonova Sh.O'zbek dialektalogiyasi.Toshkent,1978.
- 2.To'ychiboyevB.Hasanov B.O'zbek dialektalogiyasi.Toshkent.2004.
- 3.Rahimov S.Surxondaryo o'zbek shevalaari lug'ati.Toshkent.1995.
4. Jo'rayev B"Surxondaryo o'zbek shevalari" Toshkent.1969.